



www.yuz.uz



yu

“**M**uloqotda davlatimiz rahbari har yili 600 ming yosh mehnat bozoriga kirib kelayotgani, 2030-yilga borib, ushbu ko‘rsatkich 1 MILLIONGA yetishini qayd etdi.

Prezidentimizning yoshlar bilan o‘tkazgan ushbu muloqoti yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lidagi harakatlarimizning mohiyati inson qadri va yorug‘ kelajagini ta‘minlashga qaratilganini yana bir bor isbotlaydi.

DAVR
NAFASI

3

2026-yil 14-mart, 50-son



Nuqtayi nazar

HAR BIR INSON
TAQDIRIGA DAXLDOR
MASKAN

Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida dolzarb bo‘lgan masala va muammolar ro‘yirost e‘tirof etilib, ularning hal etilishida yillarining muayyan nomlar bilan atalishi ijtimoiy an‘anaga aylandi. Yurtimiz obodonchiligi, xalq moddiy-ma‘naviy ahvolini, saviyasini yuksaltirishda yillar nomi bilan bog‘liq qabul qilingan davlat dasturlari asosida amalga oshirilgan ishlar samaralari e‘tirof etilmoqda. Yurtimizda 2026-yil — Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili deb e‘lon qilindi. Bundan bosh maqsad — ona vatanimizdagi har bir inson hayotdan rozi bo‘lib yashashini to‘liq ta‘minlash sari yangi odimlar qo‘yish.

Prezidentimiz raisligida shu yil 23-yanvar kuni kambag‘allikni qisqartirish va aholi bandligini ta‘minlash bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektorda qator raqamlar, dalillar tilga olindi. Ularni mushohada prizmasidan o‘tkazgan mulohazakor inson yaqin tarixda o‘zbek jamiyatining eng muhim, tunu kun faoliyatda bo‘lgan, har birimizning taqdirimiz bog‘langan mahallalar rivoji uchun taqdiriga bunday e‘tibor, amaliy qo‘llov rejasi tuzilmaganini tasdiqlaydi.

Fikrimiz isboti uchun ayrim dalillar keltirsak.

2026-yilda 1 million aholini doimiy ish bilan ta‘minlash, 181 ming oilani kambag‘allikdan chiqarish, kambag‘allikdan xoli mahallalar sonini 2,5 barobar oshirib, ishsizlik va kambag‘allik darajasini 4,5 foizga tushirish vazifalari belgilandi.

“Og‘ir” tuman va mahallalar ahlini ish bilan ta‘minlash, daromadini oshirish masalalari atroficha ko‘rilib, avvalo, bunday hududlarni barqaror elektr energiyasi bilan ta‘minlash maqsadida 903 ta mahallaning har birida quvvat 300 kilovatt bo‘lgan kichik quyosh elektr stansiyalari qurilib, “beg‘araz aktiv” sifatida beriladi.

Ushbu stansiyalar hisobidan har bir mahallada 400-500 million so‘m qo‘shimcha daromad keltiradigan “iqtisodiy aktiv” shakllantirish nazarda tutilgan.

Mahallalarda ixtisoslashuvni rag‘batlantirish maqsadida qo‘shimcha moliyaviy mexanizmlar joriy etilib, tomorqa yer egalari va dehqon xo‘jaliklari uchun sertifikatlangan ko‘chatlarni xarid qilish xarajatining 50 foizi byudjet hisobidan qoplab beriladi. Meva turiga qarab,



Muhtarama ULUG‘OVA,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan
madaniyat xodimi

Pillachilik kooperatsiyasini tashkil etish uchun ehtiyojmand oilalarga 4 million so‘mdan subsidiya, uyida pilla yetishtirish istagida bo‘lganlarga esa xonadonni jihozlash va uskuna xaridi uchun 20 million so‘mgacha foizsiz ssuda beriladi — mana shu moddiy qo‘llodan ham ilmu tadbirkorlik, xalq tajribalariga asoslanib foydalanilsa, qancha yangi-yangi iqtisodiy samarador imkoniyatlar eshigi ochiladi.

O‘tgan asrning ikkinchi yarmida katta avlod vakili bo‘lgan onalar, buvilar uchun kelinlik



“shpaler”lar uchun 20 ming so‘mdan 70 ming so‘mgacha subsidiya ajratiladi.

Tomorqada tomchilatib sug‘orishni joriy qilganlarga har 1 sotix uchun 160 ming so‘m kompensatsiya to‘lanadi. Agar usta dehqonlar mahalladagi har 10 ta xonadonda eksportbop mahsulot yetishtirishni yo‘lga qo‘ysa, 2 million so‘m, agar buni tomorqasi bor xonadonlarning kamida 30 foizida amalga oshirsa, qo‘shimcha ravishda 75 million so‘mdan mukofot oladi.

Ommaviy axborot vositalari sahifalarida, turli yig‘in va tadbirlarda tilga olinayotgan yuqoridagi raqamlarni “Yana takrorlash shartmida?” degan e‘tirozlar o‘rinli. Chunki endi asosiy quvvatlar, e‘tibor rejalar bajarilishiga qaratilishi, tahlillar ham shu yo‘nalishda bo‘lishi maqsadga muvofiq. Ushbu nuqtayi nazardan yondashsak, taassufki, dilda qator ishtibohlar uyg‘onadi.

Prezidentimizning “Qayerda hayot yaxshilansa, daromad ko‘paysa, o‘sha yerda “yengil pul topish” harakatida bo‘lgan jinoyat tuzilmalar ham faollashib, jinoyatning yangi usul va vositalari ham, eng avvalo, shu yerda paydo bo‘ladi” degan fikrlarini SOS ogohlantirish o‘rnida ko‘rib, alohida diqqat qarataylik.

Davlatimiz rahbarining “Barcha tumanlarda “oilaviy tadbirkorlik” bo‘yicha imtiyozli kreditning eng yuqori miqdori 1,5 barobar oshirilib, 50 million so‘mga yetkaziladi. Import qilingan va sertifikatlangan naslli chorva uchun 100 million so‘mgacha, uy mehmonxonasi, kichik muzlatkich, mahsulotni saqlash va qayta ishlash minitexnologiyalari uchun esa 150 million so‘mgacha garovsiz kredit ajratiladi” degan fikrlari o‘tgan yaqin yillarda mahallalardagi ehtiyojmand xonadonlarga yordam, qo‘llab-quvvatlash sifatida jo‘jalar, tovuqlar, chorva hayvonlari tarqatilganda kuzatilgan voqealarni yodga soldi.

“Og‘ir” toifadagi mahallalardagi bo‘sh yer uchastkalari va davlat obyektlarining boshlang‘ich narxini 2-3 barobar pasaytirib, ularni sotuvga chiqarish amaliyoti joriy etiladi.

2026-yilda 2 ming gektar o‘rmon yerlari 4 ming kambag‘al oilaga 50 sotixdan tuziladi barpo etish uchun 10-yilga bepul ajratiladi.

yuz.uz_news



yuz.uz_news



Oltin avlod



Shuhrat SIROJIDDINOV,
akademik

Boshlanishi 1-betda

Yillar davomida izchil amalga oshirilayotgan islohotlar hamda yoshlar kamoloti yo‘lidagi beqiyos imkoniyatlar bugun o‘zining aniq mevalarini bermogda. O‘g‘il-qizlarimizning jahon fan olimpiadalarida 66 oltin, 147 kumush va 221 bronza medalni qo‘lga kiritgani milliy tafakkurimizning naqadar yorqin ekanidan dalolat. Garvard, Yel, Prinston, Kolumbiya va Kornell kabi dunyoning eng nufuzli oliyog‘hlarida tahsil olayotgan talabalarimiz soni 500 nafardan, kuchli yuztalikka kiruvchi universitetlarda o‘qiyotgan yoshlarimiz esa 3500 dan oshgani xalqimizning intellektual salohiyati global miqyosda e‘tirof etilayotganini anglatadi. Faqat ta‘limda emas, balki iqtisodiyotda ham yoshlarimizning 63 startap loyihasi AQSH, Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya va Birlashgan Arab Amirliklari kabi davlatlarning yirik hamda raqobatbardosh bozorlariga kirib borgan e‘tiborga molik. Xalqaro sport arenalarda qo‘lga kiritilgan minglab medallar yoshlarimizning jismoniy irodasi va yengilmas ruhini ifoda etadi. Bugun mamlakatimizdagi biznes vakillarining 35 foizini anyan yosh tadbirkorlar tashkil etayotgani esa jamiyatimizdagi iqtisodiy faollarning asosiy harakatlantiruvchi kuchi yoshlar ekanidan dalolat.

Shu nuqtayi nazardan O‘zbekiston Yoshlar taraqqiyoti global indeksida eng yuqori sur‘atda rivojlanayotgan davlat sifatida e‘tirof etilgani bejiz emas. Joriy yilda poytaxtimizda Jahon yoshlarining tinchlik sari harakati bosh qarorgohi ta‘sis etilishi, ko‘hna va navqiron Samarqand shahrida Yoshlar parlamenti a‘zolarining o‘n ikkinchi global konferensiyasi, “Take Off” xalqaro startap sammiti hamda 46-jahon shaxmat

doirasida 15 ming yigit-qiz o‘z biznesini yo‘lga qo‘yib, 50 ming aholini ish bilan ta‘minlagani esa ulkan iqtisodiy sa‘y-harakatdir.

Ayni shijoatli tadbirlarni izchil davom ettirish maqsadida yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash uchun qo‘shimcha 200 million dollar ajratilishi haqidagi fikr jamoatchilikda chinakam rezonans uyg‘otdi. Mazkur moliyaviy yordam tufayli o‘zini o‘zi band qilgan yoshlar uchun kredit miqdori 100 million so‘mdan 300 million so‘mgacha oshiriladi. Yosh tadbirkorlarning istiqbolli loyihalari uchun 10 milliard so‘mgacha kredit ajratish imkoniyati yaratilishi hamda innovation startap loyihalariga 100 ming dollargacha investitsiya kiritishga ruxsat berilishi yangi iqtisodiy davming debochasidir. Servis va umumiy ovqatlanish sohasida mingdan ziyod ish o‘rni ochgan mahalliy brendlardan franshiza olib, o‘z filialini ochish niyatida bo‘lgan yoshlar uchun qulay moliyalashtirish paketlari joriy etiladi. Bu esa tijorat infratuzilmasini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi.

Inson kapitalini rivojlantirish ijtimoiy inklyuzivlik tamoyillariz to‘laqonli ahamiyat kasb etmaydi. Ijtimoiy tashabbuslar doirasida “Fikringni ber (Voice Up)” inklyuziv oromgohi tajribasi sinovdan muvaffaqiyatli o‘tdi. Shu bois, uni mamlakatimizning har bir hududida o‘tkazish va 1000 yoshni qamrab olish belgilandi. Eng sara tashabbuslar asosida Samarqand shahrida Xalqaro inklyuziv yoshlar oromgohini tashkil etish vazifasi xalqimizga xos mehr-oqibat va bag‘rikenglikning xalqaro darajadagi ifodasi bo‘ldi. “O‘shish va rivojlanish (Upshift)” loyihasi orqali joriy yilda media, dizayn, hunarmandchilik, ishlab chiqarish va innovatsiya yo‘nalishlarida tanlovlar uyushtiriladi. Eng yaxshi 40 ta startapni moliyalashtirish uchun 2 milliard so‘m ajratilishi esa ijodkor yoshlarni ruhlandiradi. Shuningdek, hududlardagi texnikumlarda ta‘lim dasturlarini bevosita ish beruvchilarning real talablari asosida tubdan yangilash, dual ta‘lim qamrovini kengaytirish, muassasalarning moddiy-texnik bazasini yaxshilash vazifalari belgilandi. E‘tiborli jihati shundaki, endi texnikumlarga ham oliy ta‘lim muassasalari kabi “spin-off” korxonalarini ochishga ruxsat beriladi va o‘quvchilarning innovation startap loyihalariga 1 milliard so‘mgacha sarmoya kiritiladi. Joriy yildan boshlab texnikum o‘quvchilari uchun ham “Ishla va sayohat qil (Work and travel)” dasturi doirasida 6 oy davomida xorijiy davlatlarda ishlash va qo‘shimcha daromad topish imkoniyati yaratiladi. Yo‘l xarajati uchun davlat tomonidan maxsus ssudalar ajratilishi yoshlarning dunyoqarashini xalqaro andozalar darajasiga ko‘taradi.

etilishi misli ko‘rilmagan imtiyoz. “Ko‘mak” dasturi orqali olis va chekka hududlarda xorijiy til o‘quv markazlari faoliyatini kengaytirish maqsadida 300 million so‘mgacha foizsiz ssuda taqdim etilishi ko‘zda tutilgan.

Olis hududlardagi o‘quv markazlari uchun ijtimoiy soliq stavkasi 1 foiz etib belgilanishi, o‘quvchilarning daromad solig‘i esa 12 foizdan 7,5 foizgacha tushirilishi ta‘lim adolati tamoyilini qaror toptirishga xizmat qiladi.



USHBU MAQOLANI
QORAQOLQOSH TILIDA
HAM O‘QISH UCHUN
QR-KODNI SKANER
QILING!

Joylarda ehtiyojmand oilalardagi yoshlarni bepul o‘qitishni o‘z zimmasiga olgan o‘quv markazlariga qo‘shimcha imtiyozlar berilib, yer va mol-mulk solig‘idan ozod qilinadi. Shuningdek, ularning kommunal xarajatlarining teng yarmi davlat tomonidan qoplab berilishi xalqparvarlik siyosatining yaqqol nishonidir.

Jamiyatda daxldorlik hissiini shakllantirishda ko‘ngillilar, ya‘ni volontyorlik harakatining o‘rni beqiyos. Yurtimizda mazkur yo‘nalishning huquqiy asoslari yaratilgani tufayli volontyor yoshlar safi 5 barobar kengaydi. Ekologiya, tibbiy xizmat, ta‘lim hamda favqulodda vaziyatlarda ko‘maklashish bo‘yicha ko‘ngillilar soni 100 mingdan ortgani xalqimiz ma‘naviyat naqadar yuksak ekanini ko‘rsatadi. Volontyorlik harakatini rivojlantirish bo‘yicha maxsus vasiylik kengashini tuzish hamda Yoshlar ishlari agentligi huzurida “Volontyorlikni qo‘llab-quvvatlash” jamg‘armasini tashkil etish strategik reja

olimpiadasi o‘tkazilishi mamlakatimizning yoshlar siyosati sohasidagi xalqaro maqomini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Muloqotda davlatimiz rahbari har yili 600 ming yosh mehnat bozoriga kirib kelayotgani, 2030-yilga borib, ushbu ko‘rsatkich 1 millionga yetishini qayd etdi. Shuningdek, o‘tib kelayotgan avlodga o‘z imkoniyati va qiziqishiga mos ish topish uchun barcha zarur sharoitni yaratish iqtisodiy barqarorlikning eng muhim omili ekanini ko‘rsatib o‘tdi.

Ijtimoiy so‘rovnomalari natijalariga murojaat qilsak, yoshlarning uchdan bir qismi o‘z kelajagini tadbirkorlikda ko‘rishni ma‘lum bo‘ladi. Mazkur intilishni ro‘yobga chiqarish maqsadida o‘tgan yili banklar va Yoshlar ishlari agentligiga 400 million dollar miqdorida mablag‘ yo‘natilirdi. “Yoshlar biznesi” hamda “Kelajakka qadam” dasturlari

Zamonaviy bilimlarni egallashda xorijiy tillarni bilish eng asosiy kalitdir. Til sertifikatiga ega yigit-qizlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha joriy qilingan mexanizmlar o‘zining yuksak samarasini bergani quvonarli. Bugun sertifikat olgan yoshlar soni 600 mingdan oshgani hamda xorijiy tillarni mukammal biladigan 72 ming yuqori malakali instruktorga qatami shakllangani jamiyatimiz intellektual qiyofoasining o‘zgarayotganini ko‘rsatadi. Xususiy o‘quv markazlari soni uch barobar ko‘payib, 38 mingdan ortgani ta‘lim sohasida sog‘lom raqobat muhiti shakllangani dalolatidir. Xususiy o‘quv markazlari uyushtirishni tashkil etish tashabbusi davlatimiz rahbari tomonidan qo‘llab-quvvatlandi. Uyushma a‘zosi bo‘lgan markazlarga o‘z binosini ijaraga bergan tadbirkorlar ijaradan olinadigan daromad hamda foyda solig‘ini to‘lashdan butunlay ozod

“Qutadg’u bilig” bizga shunchaki o’tmishni emas, kelajakni ham ko’rsatadi. U yosh avlodni ma’naviy barkamollikka chorlaydi va bizga quyidagilarni uqtiradi: haqiqiy kuch — adolatda, haqiqiy boylik — bilimda, haqiqiy saodat — halollikda.

DAVLAT XIZMATIDA RAHBARNING MA’NAVİY FAZILATLARI

(“Qutadg’u bilig” asari misolida)



Mansur YUNUS,
O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi
Davlat siyosati va boshqaruvi
akademiyasi dotsenti,
O‘zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a’zosi

Ilmiy manbalarda keltirilishicha, mazkur nodir asarning uchta qo’lyozma nusxasi bizgacha yetib kelgan. Ularning biri Vena kutubxonasida, ikkinchisi Qohira kutubxonasida saqlanadi. Uchinchi nusxa esa 1913-yilda Namanganda topilgan bo’lib, uni ma’rifatparvar Abdurauf Fitrat 1925-yilda tarjima qilgan. Hozir mazkur nusxa O’zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanmoqda.

Asarni mutolaa qilar ekansiz, unda Abu Nasr Forobiyning axloqiy-falsafiy qarashlari hamda Firdavsiyning “Shohnoma” asaridagi ma’naviy meros ta’siri yaqqol seziladi. Shu bois, u “Shohnomai turkiy” deb ham atalgan.

Tarixiy manbalarda aytilishicha, bu asar Chin-Mochin o’lkalarida “Hukmdorlar odobi”, “Hukmdorlar qonun-qoidalar”, “Hukmdorlar

ziynati”, “Hukmdorlar pandnomasi” kabi nomlar bilan mashhur bo’lgan.

Asarning badiiy-falsafiy g’oyasi mamlakatni adolat asosida boshqarish, tinchlikni saqlash, xalqqa zulm qilmaslik, raiyat ahvolini yengillashtirish, farovon turmushni ta’minlash, xalqni bilimli qilish va ma’rifatli jamiyat qurish masalalariga qaratilgan. Muallif davlatning mustahkam bo’lishi uchun hukmdor adolatlari, vazir dono, xalq esa ma’rifatli bo’lishi shart degan bosh g’oyani ilgari suradi.

Yusuf Xos Hojib asami dialog shaklida, to’rtta ramziy obraz orqali bayon qiladi. Bu obrazlar o’zaro suhbat davomida davlat, odob-axloq, ilm-ma’rifat, qanoat, mansab, do’slik, vaqt, keksalik va ma’naviy poklik haqida fikr yuritadi. Asardagi birinchi ramziy obraz adolat timsoli bo’lgan podshoh Kuntug’didir. U quyoshdek hammaga barobar nur sochadi, davlatning mustahkam poydevorini ifodalaydi. Agar hukmdor adolatlari bo’lsa, xalq rozi bo’ladi, iqtisod rivojlanadi va tinchlik qaror topadi.

Ikkinchi obraz davlat ramzi bo’lgan vazir Oyto’ldidir. U boylik, baraka va qudrat timsoli bo’lib, osmondagi oy kabi balqib turadi. Oyto’ldi hukmdorning ishonchli maslahatchisi, tinchlik va farovonlik ramzi. Davlat adolatga xizmat qilsa, baraka bo’ladi. U adolat bilan uyg’un bo’lmasa, fitna va buzquqlikka yuz tutadi.

Voqealardagi uchinchi obraz aql timsoli bo’lgan O’gdulmishdir. U aql-idrok va bilimni ifoda etadi. Asarning asosiy mazmuni ham aynan bilim va aql atrofiga qurilgan. Kitobning nomi “Qutadg’u bilig” ham shu g’oyaga ishora, albatta. O’gdulmish to’g’ri yo’l ko’rsatuvchi donolik timsoli hisoblanadi. U hukmdorga to’g’ri

yo’l ko’rsatadi, har bir ishni aql bilan bajaradi. Adolatlarni saqlash uchun ham aql muhim ahamiyat kasb etadi. Adolat bo’lmasa — davlatda zulm bo’ladi, davlat bo’lmasa — adolat va aql amalda ko’rinmaydi. Ular bir-birini uzviy to’ldirib boradi.

Asar kompozitsiyasidagi to’rtinchi obraz qanoat ramzi bo’lgan O’zg’urmishdir. Muallif qanoatsiz jamiyat va qanoatsiz insonning oqibati jaholat ekanini ta’kidlaydi. U dunyo ne’matlariga berilmagan, mol-dunyoga qiziqmaydigan, nafsini tiygagan, kamtarlik va sabr bilan yashaydigan inson sifatida gavalanadi. Inson haqiqiy baxtini boylikda emas, qanoatda topadi. Nafsni jilovlash, ortiqcha hirsdan tiyilish, sabr va shukr bilan yashash, halol mehnatga suyanish, dunyo ortidan quvmaslikni Yusuf Xos Hojib ushbu obraz orqali ochib beradi.

Oyto’ldi vafot etgach, uning o’mini O’gdulmish egallaydi. Asar oxirida esa O’zg’urmish ham olamdan o’tadi va sahnada Adolat bilan Aql qoladi. Muallif shu orqali aql va adolat uyg’unligida davlat ravnaq topishini ramziy tarzda ifodalaydi. Ocho’k’zlikni qoralaydi, kamtarlikni ulug’laydi, ma’naviy boylikni moddiy boylikdan ustun qo’yadi.

Rahbar qonun ustuvorligini ta’minlashi, tartib-intizomni saqlashi kerak. Qonun barcha uchun teng bo’lishi lozim. Davlatimiz rahbari ham qonun ustuvorligi haqida ko’p gapiradi. Adolatlari hamda ma’rifatlari jamiyat qurish orqali xalqning farovonlik sari otmishlashini pirovard maqsad deb biladi.

Yusuf Xos Hojibning ta’limotiga ko’ra, jamiyat saodati adolatlari hukmdor, dono va bilimli rahbarlar hamda ma’rifatli xalq orqali ta’minlanadi. Podshohlar davlatni kuch bilan emas, aql bilan



Buyuklar merosidan



boshqarsa, mansabdorlar halol bo’lsa, adolatlari boshqarsa va ma’rifatli jamiyat shakllanadi.

Shu bois, asarda Aql Adolatga doimiy maslahatchi va himoyachi bo’lishi lozimligini ta’kidlaydi. Rahbar shaxslar adolatlari, bilimlari, kamtar, sabr-toqatli, xalq dardini tinglay oladigan, kengashib qaror qabul qiladigan va shaxsiy manfaatdan ustun bo’lgan yuksak fazilatlariga ega bo’lishi shart deb hisoblaydi. Asarda rahbarning ichki ma’naviy kamoloti davlat taraqqiyotiga bevosita ta’sir qilishi qayd etiladi.

Muallif asarda rahbar donishmand, sabrli, xalqparvar va halol bo’lishi kerakligini belgilab beradi. Bu tamoyillar hozirgi zamonaviy menejmentda ham dolzarb bo’lib, rahbar kadrlarning badiiy didini, obrazli tafakkurini, muloqot madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Kamtarlik kamolga eltadi. Bilimdan boshlanar donolik yo’li.

“Qutadg’u bilig”ning bugungi kundagi ahamiyati shundaki, u adolatlari boshqaruv, halol kadrlar siyosati, korruptsiyaga qarshi axloqiy yondashuv, mas’uliyatli yetakchilik va davlat

kuchining asosi adolat hamda bilim ekanini uqtiradi. Bu asar tom ma’noda rahbar kadrlar uchun maslahatg’o’y qo’llanma vazifasini o’taydi. U bugun ham ma’naviy-siyosiy dastur sifatida o’z ahamiyatini yo’qotmagan.

Mazkur asar shunchaki adabiy yodgorlik emas, davlat boshqaruvi, inson kamoloti, adolat va ma’naviyat haqidagi ulkan falsafiy qomusdir. Boshqacha aytgach, “Saodatga eltuvchi bilim” inson va jamiyatni baxt-saodatga yetaklaydigan yo’lni ko’rsatadi.

Oradan qariyb ming yil o’tdi. Dunyo o’zgardi. Bugun axborot va texnika taraqqiyoti davri. Texnologiyalar, sun’iy intellekt, globallashuv — barchasi hayotimizga kirib keldi. Ammo quyidagi savollar o’zgargani yo’q: jamiyat qanday qilib adolatlari va barqaror bo’ladi? Rahbar qanday bo’lishi kerak? Inson qanday yashasa, haqiqiy baxtga erishadi?

Donishmand Yusuf Xos Hojib bu savollarga javobni ko’p asr oldin bergan. Avvalo, u adolatlarni davlatning poydevori deb bilgan. Bugungi kunda ham adolat masalasi eng dolzarb bo’lib qolmoqda.

Qonun ustuvorligi, inson huquqlari, tenglik — bular zamonaviy davlat qurilishining asosi. “Qutadg’u bilig”da aytilganidek, adolat bo’lmasa, davlat mustahkam bo’lmaydi. Bu g’oya hozir ham o’z qimmatini yo’qotgani yo’q.

Bugun rahbarlik faqat lavozim yoki vakolat emas, balki ma’naviy mas’uliyat, katta javobgarlikdir. Jamiyat rahbarning shaxsiy fazilatlariga qarab shakllanadi. Agar rahbar halol, kamtar va xalqparvar bo’lsa, jamiyatda ishonch va barqarorlik qaror topadi.

“Qutadg’u bilig”da inson kamolotiga katta e’tibor qaratilgan. Aql, bilim va odob eng oliy qadriyat sifatida ko’rsatilgan. Bugun bilim iqtisodiyoti davrida yashaymiz. Kim bilimlari bo’lsa, kim fikrlay olsa, o’sha yutuqqa erishadi. Demak, Yusuf Xos Hojib ilgari surgan “bilim orqali saodatga erishish” g’oyasi bugungi zamon ruhiga to’la mos keladi.

Yana bir muhim jihat — maslahat va muloqot madaniyati. Asarda rahbar dono kishilar bilan maslahatlashishi, turli fikrlarni eshita bilishi zarurligi aytiladi. Bugun buni biz “ochiq muloqot”, “fuqarolik jamiyati”, “jamiatchilik nazorati” deb ataymiz. Demak, asardagi g’oyalar zamonaviy demokratiya tamoyillari bilan uyg’un.

“Qutadg’u bilig” bizga shunchaki o’tmishni emas, kelajakni ham ko’rsatadi. U yosh avlodni ma’naviy barkamollikka chorlaydi va bizga quyidagilarni uqtiradi: haqiqiy kuch — adolatda, haqiqiy boylik — bilimda, haqiqiy saodat — halollikda.

Globallashuv davrida milliy o’zlikni saqlash masalasi ham dolzarb. “Qutadg’u bilig” turkiy ma’naviyatning yuksak namunasi sifatida ildizlarimiz, qadriyatlarimizni eslatadi. U bizga kimligimizni, qanday madaniyat va tafakkur egasi ekanimizni anglatadi.

Har bir rahbar adolatlarni ustuvor qilsa, har bir inson bilim olishga intilsa, har bir yosh yuksak axloqni hayot mezoniga aylantirsa, jamiyatimiz, albatta, taraqqiy etadi.

Xulosa qilib aytganda, “Qutadg’u bilig” o’tmish merosi emas, balki bugun va ertaning dasturlamalidir. U bizni ezigulik, mas’uliyatga, adolat va bilimga chorlaydi.

mukofotlanadi. Bundan tashqari, kutubxona, “book cafe” va kitob do’konlari ochib, oyiga 10 mingdan ortiq kitob sotuvini yo’lga qo’ygan tadbirkorlarga 3 yilgacha 1 milliard so’mgacha, 7 foizli ssuda berish mexanizmi ham nazarda tutilgan. Shu tariqa kitobxonlik madaniyati nafaqat bilim va ma’naviyatni rivojlantirish, balki yoshlar va jamiyat hayotidagi samarali, amaliy va ta’sirli vosita sifatida mustahkam o’rin egallamoqda. Binobarin, kitob mutolaasi nafaqat bilim olish, balki inson salomatligiga ijobiy ta’sir ko’rsatadigan kuchli vositadir. Ilmiy tadqiqotlar ko’rsatadiki, muntazam kitob o’qish jismoniy va ruhiy salomatlikni sezilarli darajada yaxshilaydi.

— Qiziqarli kitob mutolaasi yurak urishi va qon bosimini barqarorlashtirib, asab taranglashuvini sezilarli ravishda kamaytiradi, — deydi nevrolog shifokor Javohir Zaripov. — Tadqiqotlarga ko’ra, bir soatlik kitob o’qish ruhiy relaksatsiyani taqdim qilib, kundalik tashvish va qiyinchiliklardan vaqtincha uzilish imkonini beradi. Mutolaa miyadagi neyron bog’lanishlarni mustahkamlaydi. Doimiy mutolaa qiluvchi keksa yoshli insonlarda xotira susayishi boshqalardagiga nisbatan 32 foiz kamroq kuzatiladi. Shuningdek, uxlashdan oldin bosma kitob o’qish miyani tinchlantirib, uyquga tayyorlaydi. Kitob tabiiy psixoterapevtik vosita hamdir. Hikoyalar o’qish orqali inson turli hissiyotlarni tushunib, qahramonlarning nuqtayi nazarini his qiladi.

Albatta, kitob o’qishning ruhiy va aqliy ozuqa manbai. U nafaqat bilim beradi, balki qalbni tarbiyalaydi, fikrni o’stiradi, insonni komillik sari yetaklaydi. Shunday ekan, biz buyuk millat sifatida yanada yuksalishni, taraqqiyot va ma’naviy barkamollikka erishishni istasak, bu yo’lni, avvalo, kitobdan izlashimiz shart. Zero, bugungi ochiladigan har bir sahifa kelgusi taraqqiyot poydevori.

Shuhrat NORMURODOV,
jurnalist

Mulohaza

Bir kitob
BIR HAYOTNI O‘ZGARTIRISHI MUMKIN

Chunki u moddiy xazina kabi yo’qolib ketmaydi, balki inson bilan toabad birga yashaydigan, avlodlardan avlodga o’tadigan ruhiy meros sifatida abadiy saqlanadi. Kitob orqali o’tmishning donoligi, zamonlarning o’ziga xos tafakkuri, millatlar va tamaddunlarning hayotiy saboqlari avlodlarga yetib keladi. U faqat ma’lumot manbai emas, insonni o’ylashga, izlanishga, o’zligini anglashga chorlaydi. Tuyg’ularni tarbiyalaydigan, ongini charxlaydigan va qalbni uyg’otib, fikrni chuqurlashtiradigan ma’naviy kuchdir. Uning har bir sahifasi tarixning bir parchasi, aql va tafakkurning bir shu’lasi, inson ruhining abadiy izidir.

Qishlog’imizda bir faxriy pedagog yashar edi. Hamma Zayniddin domla derdi. Yoshligimda undan ko’p kitob olib o’qirdim. Uning kamtargina kulbasi, jilmayib turadigan xokisor, ammo ma’noli qiyofasi hali-hamon yodimda. Kitob so’rab borganimda, u har gal, albatta, tavsifalarini aytib, asarning mazmuni, muallifi va uning hayoti haqida batafsil so’zlab berar edi. Kitobni qaytarib kelganimda esa erinmay undagi voqealar, qahramonlar taqdiri haqida men bilan fikr almashar, savollar berib, mushohada qilishga undardi. Shu tariqa har bir mutolaa suhbatga, har bir suhbat esa saboqqa aylanardi.

Bir safar boyvachcha kishi ustozga hazilashibmi yo chindan:

— Agar kitoblaringizni bersangiz, shu avtomobil sizniki, — deb yangi mashinasi kalitini oldiga qo’yadi.

Shunda Zayniddin domla jilmayib, sokin ovozda javob beradi:

— Bolam, bu temir-tersak bir kun eskiradi, ammo kitob eskirmaydigan boylik. Men umrimni shu boylikni yig’ishga bag’ishladim. Uni bir kunda nimagadir almashtirib bo’lmaydi.

Bu javob oddiy so’zlar emas, hayot falsafasi edi. O’sha kuni nafaqat boyvachcha yigit, balki atrofdegilar ham bir haqiqatni angladi: haqiqiy boylik qo’lda emas, qalb va ongda bo’ladi. Shu voqeadan keyin ko’pchilik domlarning kamtar kulbasi eng katta “xazina” saqlanayotgan maskan ekanini angladi. Rostdan ham Zayniddin domla kichik uyda yashovchi “katta odam” edi. Undan kitob so’ragan har bir inson kitob bilan birga qalbiga ziyo olib ketardi. Chunki o’sha kitob orqali kimdir tarixni anglar, kimdir she’riyatdan ruhlanar, yana kimdir hayot haqiqatlarini teranroq his etardi. Domla “Bir kitob bir hayotni o’zgartirishi mumkin”, derdi. Oradan yillar o’tdi. Avtomobillar eskirdi, o’rniga yangilari chiqdi, zamon

o’zgardi. Ammo domla tarqatgan kitoblar orqali taralgan ziyo hali-hamon ko’plab qalblarni charq’on etib turibdi.

O’zbek xalqi azaldan kitobxon. Shu bois, so’nggi yillarda kitobxonlikni targ’ib qilish, ma’naviy muhitni yuksaltirish va jamiyatda kitobga nisbatan ijobiy munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan keng ko’lamli islohotlar kechmoqda. Ushbu jarayon faqatgina kitob nashri va yangi kutubxonalar qurish bilan cheklanmay, jamiyatda ma’naviy uyg’onishni ta’minlashga ham xizmat qilmoqda. Aholi samarali axborot-kutubxona

xizmati bilan ta’minlanyapti. Kitobxonlik qishloq va mahallalarda ham rivojlanyapti. Yangi kutubxonalar, mobil kitob tashuvchilar, elektron kitoblar va interaktiv platformalar orqali aholi, ayniqsa, yoshlar kitobga yanada oson va sodda yo’l bilan erishyapti. Yaratilgan sharoitlar samarasida kutubxonalarga boradigan yoshlar soni 2016-yildagiga nisbatan 2,5 barobar ko’paydi.

Ma’lumotlarga ko’ra, O’zbekistonda 15 mingga yaqin kutubxona faoliyat yuritmoqda va ularda 85 million nusxada kitob va jurnal mavjud.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DM

МУАССИС:
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo’lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.
Bosmaxona telefonlari: (71) 233-11-07.

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz

Web-sayt: www.yuz.uz; (71) 233-47-05

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro’yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-346.

31346 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. **Qog’oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko’chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Sanjar Eshmurodov
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro’ziyev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko’chasi, 85-uy

O’Za yakuni — 21:15